

ABDULLA QAHHOR ASARLARI TILINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLIL

Ergashova Muhayyo Azim qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qahhor asarlarining tili sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Adib asarlarida turli ijtimoiy qatlamlar vakillarining nutqiy xususiyatlari, dialektal unsurlar va uslubiy jihatlar qanday aks etgani o'rganilgan. Shuningdek, yozuvchi dialoglarining jonliligi, rasmiy va norasmiy nutq shakllari, kinoya va hazil unsurlarining til me'yorlari bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdulla Qahhor tili o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va sotsiolingvistik jihatdan qimmatli manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Abdulla Qahhor, sotsiolingvistika, adabiy til, ijtimoiy qatlamlar, dialektal xususiyatlar, uslubiy jihatlar, xalqona nutq, rasmiy va norasmiy uslub.

ABDULLA KAHHAR'IN ESERLERININ DILI SOSYOLINGVISTIK ANALIZI

Ergashova Muhayyo Azim kızı,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi

Annotasyon. Bu makalede, Abdulla Kahhar'in eserlerinin dili sosyodilbilimsel açıdan analiz edilmiştir. Yazarın eserlerinde farklı sosyal sınıfların temsilcilerinin konuşma özellikleri, diyalektik unsurlar ve üslup yönleri nasıl yansıtıldığı incelenmiştir. Ayrıca, yazarın diyaloglarının canlılığı, resmi ve gayri resmi konuşma biçimleri, ironik ve mizah unsurlarının dil normlarıyla ilişkisi analiz edilmiştir. Araştırma sonuçları, Abdulla Kahhar'in dilinin Özbek edebi dilinin gelişimine büyük katkıda bulunduğunu ve sosyodilbilimsel açıdan değerli bir kaynak olduğunu göstermektedir.

Anahtar kelimeler. Abdulla Kahhar, sosyodilbilim, edebi dil, sosyal katmanlar, diyalektik özellikler, üslup yönleri, halk konuşması, resmi ve gayri resmi üslup.

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЯЗЫКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ АБДУЛЛЫ КАХХАРА

Эргашова Мухайё Азим кызы,
студентка Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В данной статье проводится социолингвистический анализ языка произведений Абдуллы Каххара. Рассматриваются речевые особенности представителей различных социальных слоёв, диалектные элементы и стилистические аспекты, отражённые в его произведениях. Также анализируются живость диалогов, формальные и неформальные формы речи, элементы иронии и юмора в контексте языковых норм. Результаты исследования показывают, что язык Абдуллы Каххара внёс значительный вклад в развитие узбекского литературного языка и является ценным объектом для социолингвистического изучения.

Ключевые слова. Абдулла Каххар, социолингвистика, литературный язык, социальные слои, диалектные особенности, стилистические аспекты, народная речь, формальный и неформальный стиль.

SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS THE LANGUAGE OF ABDULLA QAHHOR'S WORKS

*Ergashova Mukhayyo Azim kizi,
student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Annotation. *This article presents a sociolinguistic analysis of the language used in the works of Abdulla Qahhor. It examines the speech characteristics of different social groups, dialectal elements, and stylistic features reflected in his works. The study also analyzes the liveliness of dialogues, the use of formal and informal speech, as well as elements of irony and humor in relation to linguistic norms. The findings indicate that Abdulla Qahhor's language has made a significant contribution to the development of Uzbek literary language and serves as a valuable source for sociolinguistic research.*

Keywords. *Abdulla Qahhor, sociolinguistics, literary language, social groups, dialectal features, stylistic aspects, folk speech, formal and informal style.*

O'zbek adabiyotining ulug' namoyondalaridan biri Abdulla Qahhor o'zining realistik hikoyalari va romanlari bilan xalq hayotini aniq va yorqin aks ettirgan adiblardan biridir. Uning asarlari nafaqat badiiy jihatdan, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham qimmatlidir. Ayniqsa, uning tili sotsiolingvistik jihatdan o'rganishga boy material taqdim etadi. Ushbu maqolada Abdulla Qahhor asarlarining tiliga sotsiolingvistik yondashuv orqali baho berilib, undagi ijtimoiy qatlamlar, dialektal xususiyatlar va nutq uslublari tahlil qilinadi.

Sotsiolingvistika tilning jamiyat bilan o'zaro aloqasini, ijtimoiy guruhlar tilidan foydalanish xususiyatlarini, nutq madaniyati va uslublari o'rganadigan fan hisoblanadi. Adabiy til esa badiiy asarlarda qanday aks etishi, unda turli ijtimoiy qatlam vakillarining nutqi qay tarzda ifodalangani muhim masala sanaladi. Abdulla Qahhor asarlarida ham bunday sotsiolingvistik jihatlar yorqin namoyon bo'ladi. Adib asarlarida turli ijtimoiy qatlam vakillarining nutqi realistik tarzda berilgan. Masalan: Oddiy xalq nutqi: "O'g'ri" hikoyasida dehqonlar va oddiy ishchilarning nutqi oddiy, xalqona so'zlashuv uslubida ifodalangan. Unda mahalliy shevaga xos so'zlar, qisqartmalar va emotsional ifodalar mavjud. Asarning o'zini oladigan bo'lsak, epigrafning o'zida maqoldan foydalanilgan. Ortiqcha so'zlarsiz, aniq va tushunarli ifodalangan: Otning o'limi itning bayrami. Yoki "O'ynashmagil arbob bilan, seni urar har bob bilan" kabi maqolaning ham qo'llanilganligi fikrimiz dalilidir. Mana shu jumla orqali ham asarni tushunib olishi mumkin. "Sinchalak" qissasida o'qimishli insonlarning nutqi me'yoriy adabiy til me'yorlariga yaqin bo'lib, unda aniq fikrlash va mantiqiy izchillik seziladi. Harbiy xizmatchilar nutqi: "Qo'shchinor chiroqlari" romanida harbiy xizmatdagi qahramonlarning nutqida keskinlik, buyruq ohanglari va qisqa gaplar ustunlik qiladi.

Dialektal xususiyatlar va mahalliy lahjalarning aks etishi: Abdulla Qahhor o'z asarlarida o'zbek tilining turli shevalarini mahorat bilan ishlatgan. Bu, ayniqsa, qishloq aholisi bilan bog'liq sahnalarda ko'zga tashlanadi. Masalan: "O'g'ri" hikoyasida dehqonlarning so'zlashuvi Farg'ona shevasiga yaqin bo'lib, "kelyapsan" o'rniga "kelyapsiz", "bo'lyapti" o'rniga "bo'layatgan" kabi shakllarni ko'rish mumkin. Sinchalak" qissasida ba'zi qahramonlarning nutqida Toshkent shevasiga oid so'zlar ham uchraydi. Masalan: *Unday* so'zining o'rniga *undoq*; *bunday* o'rniga esa *bundoq* shaklida ko'zga tashlanadi.[1,23.] Bu jihatlar yozuvchi asarlarining tabiiyligini oshiradi va qahramonlarning individual nutq xususiyatlarini ochib beradi.

Abdulla Qahhor tilidagi uslubiy xususiyatlar. Yozuvchi tili uslubiy jihatdan boy va rang-barangdir. Uning asarlarida dialoglar jonliligi – qahramonlarning nutqi orqali ularning xarakteri ochib beriladi. Salbiy va ijodiy qahramonlarni nutqi orqali farqlaymiz. Masalan, Sinchalak qissani olsak, salbiy obraz Qalandarov va Zulfiqarov ijobiyarlari esa Said Nosirov misolda ko'rishimiz mumkin : Hazil va kinoya – sotsiolingvistik jihatdan bu uslub oddiy xalq nutqiga yaqin bo'lib, o'quvchiga ta'sirini oshiradi. Rasmiy va norasmiy uslub – qahramonlar nutqida rasmiylik yoki oddiylik darajasi muhit va sharoitga qarab o'zgarib turadi. Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining

realistik yo'nalishdagi yirik vakillaridan biri bo'lib, uning til uslubi ham aniq, lo'nda va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. U o'z asarlarida xalqona iboralar, jonli dialoglar va satirik ifodalardan keng foydalanib, qahramonlarning tabiiy nutqini yaratgan. Quyida Abdulla Qahhor tilining asosiy uslubi xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Yozuvchi o'z asarlarida sun'iy bezaklardan qochib, tabiiy va hayotiy nutqni yaratishga intilgan. Uning dialoglari hamisha jonli, ta'sirchan va xarakterga mos bo'lib, har bir qahramonning hayotiy pozitsiyasini ochib beradi. Masalan: "Men odam emasmanmi? Men ham baxtli bo'lishga haqliman!" Bu kabi dialoglarda tabiiylik va hayotiylik yaqqol sezilib turadi. Abdulla Qahhor xalq tilini, uning so'zlashuv uslublarini, iboralarini asarlarida mohirlik bilan qo'llaydi. U qahramonlarning hayot tarzi va ijtimoiy maqomiga mos ravishda ularning nutqini shakllantiradi. Bu uning realizmga yaqin yozuvchi ekanligini ko'rsatadi. Misol: "Qorong'i uyga kirsang, qo'rqasan, lekin o'tiraversang, ko'nikasan". Bu jumla hayotiy tajriba va xalqona ifodalarga boy bo'lib, kishiga ta'sir etuvchi kuchga ega [1,31.]. Yozuvchi o'z asarlarida satirik unsurlardan keng foydalanib, jamiyatdagi illatlar, kamchiliklar va odamlarning noxush fe'l-atvorlarini kinoya bilan tasvirlaydi. Uning hikoyalarida bu, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Misol: "Boylarning ishi har doim o'ngidan keladi, kambag'alniki esa o'ylab ham o'tirmaydi". Bu kabi iboralar orqali u jamiyatdagi tengsizlik, adolatsizlikni keskin tanqid qiladi. Abdulla Qahhor ortiqcha murakkab jumalardan qochib, soddalik va lo'ndalikni afzal biladi. Uning jumalari qisqa, aniq va ta'sirchan bo'lib, o'quvchiga tez yetib boradi. Misol: "Baxt degani pul emas, yurak tinchligidir". Bu kabi jumalar inson qalbiga yaqin va tushunarli bo'lgani uchun tez esda qoladi.

Yozuvchi ba'zan o'z qahramonlarining nutqida ularning kelib chiqishiga mos ravishda dialektal yoki shevaga oid so'z va iboralardan foydalanadi. Bu asarlarning tabiiyligini oshiradi. Misol: "Yo'g'-e, shunaqa bo'lishi mumkin emas-ku!" Bu kabi so'zlashuv shakllari qahramonning individual nutq xususiyatlarini ko'rsatishga yordam beradi. Abdulla Qahhor asarlarida ta'rif va tavsiflar ortiqcha bo'lmasa ham, o'quvchiga ta'sir qiluvchi kuchga ega. U metafora, taqqoslash va jonlantirish kabi badiiy vositalardan me'yorida foydalanadi. Misol: "Quyosh xuddi o't chaqib yuborgandek osmonning yarmida lovillab turardi". Bu kabi tasvirlar orqali u voqealarni jonlantirib, o'quvchining tasavvurini oshiradi. Abdulla Qahhor tili o'zbek adabiyotida realizmning yorqin namunasidir. U xalqona iboralar, jonli dialoglar, satira va oddiy, lekin mazmunli tildan foydalanib, o'z asarlarining ta'sirchanligini oshirgan.[2,33.] Yozuvchining uslubi sodda, lo'nda va hayotiy bo'lib, bu kabi xususiyatlar bevosita sotsiologik xarakter kasb etadi.

A.Qahhor o'z asarlarida xalq tiliga yaqin bo'lish, oddiy odamlarning hayotini realistik tarzda tasvirlashga katta e'tibor bergan. Shu bois uning hikoya va qissalarida o'zbek tilining turli shevalari va mahalliy lahjalari, koyne, sotsiolekt va slenglardan faol foydalangan. Bu usul qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, yashash muhiti va madaniy muhitini aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. Qahramonlarning nutqini tabiiylashtirish – har bir qahramon o'z ijtimoiy kelib chiqishiga mos ravishda so'zlashadi. Hududiy xususiyatlarni ifodalash – yozuvchi turli viloyatlarga oid nutq shakllaridan foydalanib, voqelikni aniqroq tasvirlaydi. Badiiy asarning realistik ohangini kuchaytirish – dialektal unsurlar asarning tabiiyligini oshiradi. Abdulla Qahhor asarlarida mahalliy lahjalarning aks etishi Farg'ona vodiysi shevalari Abdulla Qahhor asarlarida Farg'ona vodiysi shevasining ba'zi xususiyatlari yaqqol seziladi. Ayniqsa, qishloq odamlari nutqida quyidagi elementlar uchraydi: So'z oxiridagi -yapti o'rniga -yotgan shaklidan foydalanish: Misol: "Ishni tugatyatgan bo'lsak, ketsak bo'ladimi?" "Kelayapsan" o'rniga "kelyapsiz" yoki "kelasiz" ishlatilishi:

Misol: "Uzoq yursangiz, charchaysiz-da".

Ortiqcha undov so'zlar va hissiyot ifodalari:

Misol: "O'ziyam qiziq odam ekansiz-a!"[1,56.]

Toshkent shevasi ta'siri yaqqol sezilgan va bu holat adibning ba'zi asarlarida toshkentlik qahramonlarning nutqida bu xususiyatlar uchraydi:

"Bo'pti" o'rniga "bo'g'on" ishlatilishi:

Misol: "Kecha ko'chaga chiqqandim, ob-havo chatoq bo'g'on"

“Gap yo‘q” yoki “zo‘r” o‘rniga “shunaqayam”. Misol: “Shunaqayam mazza qilib ovqat yedimki!”

Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarida ba‘zan janubiy hududlarga oid nutq shakllari ham uchraydi: “Borayapman” o‘rniga “borvomman” ishlatilishi: Misol: “Hozir ishga borvomman”.

Chakana talaffuz xususiyatlari:

Misol: “Kecha uyga bordim, odam yo‘q ekan”.

Abdulla Qahhor asarlarida dialektal unsurlar quyidagi jihatlarida muhim rol o‘ynaydi: Qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishini aks ettiradi. Masalan, qishloq odamlari va shahar odamlari nutqida sezilarli farq bor. Realizmni oshiradi. Dialektal xususiyatlar tufayli asar qahramonlari jonli va tabiiy ko‘rinadi. Muloqotning samimiyligini ta‘minlaydi. Xalq tiliga yaqinlik asarning ta‘sirchanligini oshiradi. Abdulla Qahhor asarlarida mahalliy lahjalarning qo‘llanilishi badiiy tasvirning tabiiyligini ta‘minlaydi. Uning qahramonlari o‘z hududiga xos talaffuz, so‘zlashuv uslubi va ifodalarni ishlatganligi sababli, asarlar xalqona ruh bilan sug‘orilgan. Bu esa yozuvchining ijodiy mahoratini yanada kuchaytirgan. vchilar ommasiga yaqinlashtiradi.

Abdulla Qahhor asarlari sotsiolingvistik jihatdan nihoyatda qimmatli manba bo‘lib, unda turli ijtimoiy qatlamlar nutqi, dialektal xususiyatlar va uslubiy o‘ziga xosliklar aks etgan. Adibning tili nafaqat o‘zbek adabiy tilining rivojlanishiga hissa qo‘shgan, balki xalq nutqining realistik tasvirini ham o‘zida mujassam etgan. Shu sababli, uning asarlarini sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik uchun ham dolzarb.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qahhor A. Asarlar. (bir necha jildlik) – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 1926. – B. 78.
2. Qahhor, A. Sinchalak. (qissa) – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 1958. – B. 78.
3. Rasulov M. O‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti. – Toshkent: O‘zbekiston 2005. – B. 43.
4. Sotsiolingvistika va tilshunoslik bo‘yicha adabiyotlar. (O‘quv qo‘lanma) SamDU nashiryoti – Samarqand, 2023. – B. 234.